
O‘ZBEK TILIDA NUTQ ODOBI MASALALARI

Dilnavoz Imomaliyeva,

Qo‘qon DU rus tili va adabiyoti ta‘limi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalarida nutq madaniyati, so‘z odobi va nutqiy go‘zallik masalalari tadqiq etilgan. Unda maqol, topishmoq, doston, ertak va qo‘shiqlar misolida xalqning so‘zga bo‘lgan munosabati, chiroyli va ta’sirchan nutq haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodida qahramonlar nutqining shirinsuxanligi, muomala madaniyati, so‘zning inson ruhiyatiga ta’siri hamda nutqiy odobning ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, saj’, tashbeh, metafora kabi badiiy vositalarning nutq ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatilib, o‘zbek xalqining qadimdan nutq madaniyatiga katta e’tibor qaratgani asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida nutq madaniyati xalqning ma’naviy qadriyatlari, tafakkuri va milliy dunyoqarashining ajralmas qismi ekanligi xulosalangan.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, xalq og‘zaki ijodi, so‘z odobi, maqol, topishmoq, doston, ertak, badiiy nutq, nutqiy go‘zallik, so‘z san’ati, saj’, tashbeh, metafora, xalq tafakkuri, milliy qadriyatlar.

Nutq madaniyati bashariyatning so‘zdek muqaddas ne‘mat bilan ziynatlangan kuni bilan tengdosh desak, tabiiyki, xali yozuv bo‘lmagan paytdan, og‘zaki ijod namunalari paydo bo‘lgan zamondan mazkur masalaga e’tibor qaratilgan. Xalq og‘zaki ijodining turli janrlari – maqol, topishmoq, doston, ertak, askiya, rivoyat, afsonalarda chiroyli nutq, madaniyatli nutq haqida ko‘p so‘z borgan, qahramonlar tilining shirinligi, muomalasining nekbinligi bilan xalqning orzu-umidlaridagi qahramonlar sifatida yashovchanlik kasb etgan. Aytimchilar o‘z qahramonlarining nutqiga alohida e’tibor bilan qaragan – ularning dialog, monologlarida so‘z nafosatining qayralgan va kutilmagan go‘zalliklarini inkishof etganlar. So‘z va nutqning fasohati xalq yaratgan maqol va topishmoqlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Lingvistikaning asosi so‘z bo‘lgani kabi, nutq madaniyatining asosini ham so‘z tashkil etadi. Bu sohada so‘zning o‘zigina emas,

balki shu soʻz kim tomonidan, qanday sharoitda va qay yoʻsinda istifoda etilayotgani muhim. Shu sababdan qadimdan to bugungacha yaratilgan va yaratilayotgan ogʻzaki va yozma manbalarda soʻz va uning ijrosiga (nutq madaniyatiga) eʼtibor muhim boʻlib kelgan. Xalqning ogʻzaki ijodi namunalari boʻlmish asotir (mif), afsona va ertaklarda asarlarning bosh qahramonlari yovuz kuchlar (devlar, monstrlar, yalmogʻizlar va b.)ga duch kelganlarida shirinkalomlik bilan salom berishlari ularni tasodifiy falokatlardan asrab qolganliklari – “Saloming boʻlmaganida ikki yamlab bir yutar edim” degan kleshalarning paydo boʻlishiga sabab boʻlgan. Yoki “Zumrad va Qimmat” ertagida Zumrad oʻrmonda adashtirib kelinganida shirinsuxanligi, salomini kanda qilmaganligi, mehnatsevarligi tufayli boyliklarga sazovor boʻlib, sogʻ-salomat oʻz xonadoniga qaytganligi, Qimmatning esa injiq va erkatoyligi, qoʻpol tilliligi oqibatida sharmanda boʻlganligi voqealari ham botinan til madaniyatiga, binobarin, nutq madaniyatiga aloqadorligi bilan eʼtiborni tortadi. Chunonchi, xalq dostonlarida koʻp duch kelinadigan sajʼlarda aytimchi nutqining fasohati yanada boʻrtib namoyon boʻladi. Shu jihatdan “Tohir va Zuhra” dostonida bunday sajʼ namunasiga duch kelinadi. Kuyutir sahrosida sargardon boʻlib kezgan Tohir yura-yura Goʻshai tovon deb ataladigan bir chamanzor joyga yetishadi. Baxshi sajʼ sanʼatidan mahorat bilan foydalanib, har joyida marmardan hovuzlar qilingan bu ajoyib goʻshani “dumini chodir qilib yurgan tovonlar, bulbullar sayragan, toʻtilar kuylagan, jami qushlar gir tevaragini toʻylagan, koʻrganni hayron aylagan” deb taʼriflaydi. Yoki “Kutugʻmish” dostonida Xolbeka taʼrifida aytilgan ushbu sajʼ ham nutqning goʻzal koʻrinishi sifatida eʼtiborni tortadi: Xolbekaning yuzlari toʻlin oyday, yurishlari chopqillab yurgan toyday, sochlari sharqirab oqqan soyday; u yogʻida toʻqson besh, bu yogʻida toʻqson besh, oʻn kam ikki yuz kokili bor; bir tomonini tilla suviga botirgan, bir tomonini kumush suviga botirgan, shamolda qotirgan...

Xalq qoʻshiqlari matnida ham sheʼriy nutqning benihoya jozibali, madaniy nutq unsurlari bilan ziynatlangan misralarga duch kelinadiki, bular ham oʻzbek xalqi nutq madaniyatining ildizlari uzoq oʻtmishga borib taqalishi, ularda inson kayfiyati, aqlu zakovati, didu farosatining yuksak darajada boʻlganini kuzatish mumkin. Ulardagi tashbehlar, metafora va boshqa koʻchimlar, mubolagʻalar eshitguvchining yuragini “jiz” etkizish barobarida, ruhiyatiga-da taʼsir oʻtkazadi.

Ayniqsa, xalq maqollarida soʻzning va nutq egasining nutq jarayonidagi ishtiroki

masalasiga alohida diqqat qilingan namunalari ko‘plab uchraydi. Ana shu nuqtai nazardan, xalq maqollariga, ularda so‘zning qudrati, jozibasi, kishilarning nutqida so‘zning ishtiroki mavzulariga daxldor ayrim namunalarini ko‘rib chiqaylik.

“Qilichning zahri ketsa ham, so‘zning zahri ketmaydi” maqolida ham nutqda so‘zni ishlatishdagi hushyorlik, kishining diliga qattiq tegmaydigan so‘zlarni istifoda qilish kerakligi xususida gap boradi. Shu o‘rinda bir qator xalqlar folxlorida keng tarqalgan “Dehqon bilan ayiq” ertagini eslash kifoya. Ertakda naql qilinishicha, dehqon bilan ayiq do‘st tutunadi. Ular uzoq vaqt birga, totuvlikda hayot kechiradilar. Kunlarning birida dehqon ayiqning badanidan kelayotgan ter hididan jirkanib, undan sassiq hid kelayotganidan shikoyat qilib, achchiq bir so‘z aytadi. Bu so‘z ayiqni qattiq ranjitadi. Shunda ayiq boltani olib, dehqonga tutqazadi va boshiga qattiq urushini so‘raydi.

Dehqon boltani olib, ayiqning boshiga uradi. Boshi yorilgan ayiq o‘kirganicha o‘rmonga kirib ketadi. Oradan kunlar, oylar, yillar kechadi. Kunlarning birida ayiq o‘rmondan chiqib keladi va dehqonga ro‘baro‘ bo‘ladi va bolta jarohatlagan boshini dehqonga ko‘rsatadi. Dehqon ayiqning boshidagi jarohat bitib ketganini ko‘radi. Shunda ayiq boshi va ko‘ksini ko‘rsatib, “boshimga sen urgan boltaning izlari bitib ketdi. Biroq qalbinga sen yetkazgan jarohat xali ham bitgani yo‘q. Har eslaganimda bu jarohat yangilanib, dilimni vayron qiladi”, deya dehqonni izza qiladi. Ayrim bir topishmoqlar ham so‘z, fikr, so‘zga chechanlik, nutq imkoniyatlarining serqatlamligi xususida ekanligi bilan diqqatni tortadi. Masalan, javobi so‘z, gap bo‘lgan “Asaldan shirin, zahardan achchiq”, “Birovni suydinar, birovni kuydirar”, “Og‘zimni ochdim, uchdi-ketdi, Samarqandu Buxoro borib yetdi”, “Og‘izdan chiqqancha meniki, og‘izdan chiqqani elniki”, “Asal emas, yoqadi, ari emas, chaqadi” singari topishmoqlarda so‘z, uning ta’sirchanligi va jozibasi mujassam ekanligini sezish qiyin emas.

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodining turfa janrlarida insonni “ashraful mahluqot” qilgan so‘z, so‘zlash va uning odobi, qisqasi, nutq madaniyati borasidagi qarashlar mavjudligi, nutq madaniyati mental fe‘l-atvor bo‘lib, xalqning ma’naviy olamining ajralmas qismi ekanligi ko‘p bora uqtirilganini sezish va undan ibrat olish mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda, so‘z, nutq va nutq odobi xususida keltirilgan misollar insonda nutq madaniyati, so‘zlash usullari, so‘z boyligi talab darajasida bo‘lishi, inson mumkin qadar chiroyli so‘zlar, ayrim o‘rinlarda badiiylashgan iboralar, xalq tilining ta’sirchan va muzayyan ifodalarini ishlatish me’yorlarini o‘zlashtirishi va buni odat tusiga kiritishi zarurligi xususidagi tavsiyalar berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzayev T. So‘zdan so‘zning farqi bor // O‘zbek xalq maqolari. –Toshkent: Sharq, 2005. B. 3.
2. Berdiyev N., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1984.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.
4. Uluqov N., Abdulhamidova L. Nutq madaniyati tahlil va talqinlari. –Toshkent: Navro‘z, 2017. B.9.
5. To‘xliyev B. O‘zbek adabiyoti. –Toshkent: O‘qituvchi, 2000. B.105
6. Ahmedova H. Analysis and Description of Ancient Sources of Speech Culture/ Journal of Advanced Zoology, Volume 44 Issue 04 Y <https://jazindia.com> [scopus ear2023 Page
7. Ahmedova H. Ona tilini o‘qitish metodikasi. Ilm va fan, –Toshkent: 2023.
8. Ahmedova H. A.Navoiyning “Mahbub-ul-qulub” asaridagi nutq madaniyatiga oid qarashlari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10315527>
9. Mirzaevich, G. I. (2026). Ethnic Stereotypes in the Phraseologisms of the Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages. Asian Journal of Arts and Culture, 26(1), e23-e23.
10. Ziyatova, B. B. (2024). INNOVATION TAFAKKURNING FALSAFIY, PSIXOLOGOK VA DIDAKTIK MOHIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(26), 389-393.
11. Ismailov, G. M. (2016). PHRASEOLOGICAL PICTURE OF THE WORLD IN THE TURKIC LANGUAGES. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(43), 5-7.